



IMOM AL BUXORIYNING “AL-JOME’ AS-SAHIH” ASARI TARJIMASINING AHAMIYATI

Mahbuba Kuvondikova

Mustaqil tadqiqotchi

Ilmiy rahbar: Teshaboyeva Ziyodaxon Qodirovna

Hozirgi ilm-fan yanada taraqqiy etayotgan davrda Tarjimashunoslik fani va undagi muammolarni o'rganish va bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, tarjima ilmida diniy matnlar tarjimasi alohida o'rin egallaydi. Bu mavzuni tadqiq etish nafaqat shu soha mutaxassislariga uchun, balki boshqa yo'nalish vakillari uchun ham foydali bo'ladi. Tarjima – millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi bo'lib, bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi hisoblanadi. Har bir sohaning o'zi tadqiq qiladigan yo'nalishi, o'rganadigan muammolar tizimi mavjud bo'ladi. Xuddi shunday tarjima sohasida ham bir qancha o'rganiladigan masalalar bo'lib, biz ko'rib chiqadigan masala “diniy matnlar tarjimasidagi muammolar va ularni bartaraf etish usullari” masalasidir.

Diniy matnlar haqida gap ketganda avvalambor, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'on ko'z oldimizga keladi. Bundan tashqari Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam sunnatlarini o'zida jamlagan Imom Al Buxoriyning “Al-Jome' As-Sahih” asari ham bu borada juda ishonchli va zaruriy manba hisoblanadi. Biz tadqiq etayotgan diniy matnlar tarjimasi masalalari ushbu asar asosida amalga oshiriladi.

Islomda ishonchliligi jihatidan Qur'ondan keyingi ikkinchi manba bo'lib hisoblangan “Al-Jome' As-Sahih” Imom Buxoriyning shuhratini olamga taratgan asar hisoblanadi. Musannif uni yozish uchun umrining o'n olti yilini sarf etgan. Imom Buxoriy bu asarni yaratishiga ustozisi Ishaq ibn Rohavayhning tashviqi va o'zining ko'rgan tushi sabab bo'lgan. O'zining yozishicha, u tushida Muhammadni ko'radi. Ta'birchilar uning bu tushi payg'ambar hadislarini har xil yolg'on va shubhalardan tozalab to'plashiga ishora ekanini aytadilar. Imom Buxoriy o'zi yod bilgan olti yuz ming hadisdan sahihlarini va sanadi Muhammadga yetib boradiganlarini tanlab, ularni jamlashga jazm etgan. “Al-Jome' As-Sahih”ning yozilishi turli davrlarda va turli hududlarda davom etgan. Imom Buxoriy biror hadisni o'z to'plamiga kiritishdan oldin o'sha hadis matni va sanadini, sanad silsilasidagi roviylarning ishonchlilik darajasini tekshirgan va sanadning payg'ambargacha yetib borishiga ahamiyat bergan. Kitobning „Jome“ deb nomlanishiga sabab, ahli hadislar tomonidan to'rt fanga bo'lib o'rganilgan va har bir fan bo'yicha alohida kitob tasnif qilingan.

Ular: Sunnat, Tafsir, Siyrat, Zuhd va Raqoiq fanlari. Imom Buxoriy “Al-Jome' As-Sahih”da mazkur fanlarning barchasiga tegishli hadislarini jamlagan.. Imom Buxoriyning eng muhim va mashhur asari “Al-Jome' As-Sahih” asaridir. Bu asarning to'liq nomi “Al-Jome' al-musnad as-sahih al-muxtasar min umuril Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) va sunanihi va ayyamihi” deb nomlangan. Asar hadis ilmida va musulmonlar orasida qisqacha “Al-Jome' As-Sahih”, aksar hollarda esa “Sahihul Buxoriy” nomi bilan mashhur ekani ma'lum. Ulamolar bu asarni Qur'oni Karimdan keyingi eng sahih kitob deb biladilar.



“Sahihul Buxoriy” dastlab ingliz tiliga Muhammad Taqiuddin al-Hilali va doctor Muhammad Muhsin Xon tomonidan “*The Translation of the Meanings of Sahih al-Bukhari: Arabic-English*” (“Sahihul Buxoriy ma’nolari tarjimasi: Arabcha-inglizcha) nomi bilan 1971-yilda arab tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan.

2019-yilda Nyu Yorkdagi Arab Virtual Tarjima Markazi “Sahihul Buxoriy”ning birinchi to’liq ingliz tiliga tarjimasini “*Encyclopedia of Sahih Al-Bukhari*” (“Sahihul Buxoriy Ensiklopediyasi”) nomi bilan tarjima qilib nashr etdi. Ushbu asarda izohlar, maxsus atamalar ro’yxati hamda barcha roviylarning tarjimai hollari keltirilgan. Buyuk bobomizning mazkur to’plami “Hilol” nashriyotida Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf hamda bir guruh tarjimonlar tomonidan hozirgi o’zbek tiliga tarjima qilinib, ilk bor arabcha matni bilan birgalikda to’liq holda chop etildi.

Alloh taoloning irodasi ila kitobning barcha juzlari nashrdan chiqib kitobxonlar e’tiboriga havola qilindi. Ushbu to’plam 8 ta juzdan iborat hamda bir necha bor qayta nashr qilingan. Imom Buxoriyning sahih hadislar to’plami asli arab tilida bitilgan, keyinchalik ko’plab xorijiy tillarga tarjima qilingan hamda qayta va qayta nashr etilgan. Ularning eng ko’p tarqalgan tarjimalari ingliz tilida bo’lib, aksariyati Buyuk Britaniya kutubxonalarida saqlanadi.

Imom Buxoriyning o’zi haqidagi asarlar ham turli tillarda bitilgan bo’lsa-da, ularning eng ommalashganlari ingliz tilidadir. Islom dini keng yoyilgan Indoneziya, Malayziya, Bangladesh, Pokiston, Nigeriya, ba’zi arab davlatlari va qisman Hindistonda ingliz tilining rasmiy va ilm-fan tili sifatidagi maqomi buning sabablaridan biri bo’lishi mumkin. Shu bois, Imom Buxoriy haqida ma’lumot beruvchi manbalar ichida ingliz tilida yozilgan yoki mahalliy tillardan ingliz tiliga tarjima qilinganlari salmoqli o’rin egallaydi. Imom Buxoriy “Sahih”ining ingliz tilidagi 9, 3 va 2 tomlik tarjima nashrlarini keltirish mumkin.

Ularning muqaddimasida buyuk muhaddis haqida qisqacha ma’lumotlar beriladi. Xususan, Madina al-Munavvara Islom universiteti doktori Muhammad Muhsin Xon tomonidan ingliz tilidagi 9 tomlik “Sahih al-Buxoriy ma’nolarining tarjimasi” asarining kirish qismida aytilishicha, “Mashhur bo’lishiga qaramay, Buxoriy haqqoniyligi va xokisorligi bois, hukmdorlardan o’zini uzoq tutardi. Ularning ra’yiga qarab, biror noto’g’ri so’z aytib qo’yishdan o’zini tiyardi. Zotan, o’sha zamonlarda aksar olimlar hukmdorlarning nazariga tushish uchungina hadis ilmi bilan shug’ullanardi”.

Barcha sohalarda bo’lgani kabi diniy matnlar tarjimasi ham o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, ularni tarjima qilish tarjimondan yuksak e’tibor talab etadi. Zero, yo’l qo’yilgan kichik bir xato ham katta tushunmovchiliklarga sabab bo’lishi mumkin. Shu kungacha o’zbek olimlari va ilmiy izlanuvchilar tomonidan bu borada bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) Hoshimova Nargis Abdullayevna tomonidan nashr qilingan “Ingliz va o’zbek tillarida shaxs diniy dunyosining frazeologik tasviri tahlili” nomli maqolada diniy frazeologik birliklarga misollar beriladi va har ikki tilda (ingliz va o’zbek tillarida) solishtiriladi. Biroq aynan biz ko’rib chiqmoqchi bo’lgan asar asosida diniy terminlar tarjimasi muammolari batafsil yoritilmagan. Shu sabab ushbu mavzu ham tarjimashunoslar uchun, ham islomshunoslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Al-Jome' As-Sahih" asari hamda uning tarjimasi turli soha vakillari uchun juda foydali va ilmga boy manba hisoblanadi. Bu asarni tarjima qilish jarayonini o'rganish, undagi muammolarni aniqlash va tahlil qilish ham nihoyatda dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammadiyev Dilshodjon Zoir o'g'li. Iqro jurnali. Vol – 1, Issue – 2. E-ISSN: 2181-4341.
2. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. *Dinshunoslik. Qomusiy lug'at*. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017 — 480 bet.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. "Sharq" nashriyoti, 2011. B-69.